

ALIMENT TURLARI HAMDA UNI TO'LASH TARTIBI VA MIQDORI

Bahronov Azizjon Fayzulloyevich

Navoiy viloyat sudi sudyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19234402>

Annotatsiya: Ushbu maqolada aliment tushunchasining huquqiy va lug'aviy mazmuni, aliment majburiyatlarining turlari hamda ularni to'lash tartibi tahlil qilingan. Muallif voyaga yetmagan bolalar, mehnatga layoqatsiz ota-onalar va yordamga muhtoj sobiq er-xotinlarning moddiy ta'minoti masalalarini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada aliment miqdorini belgilashdagi kvotalar va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan eng kam miqdorlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *aliment, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz, sud tartibi, aliment miqdori, qo'shimcha xarajatlar, oila qonunchiligi.*

ВИДЫ АЛИМЕНТОВ, А ТАКЖЕ ПОРЯДОК И РАЗМЕР ИХ ВЫПЛАТЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются правовое содержание понятия «алименты», виды алиментных обязательств, а также порядок и размеры их выплат. Автор анализирует обязанности по содержанию несовершеннолетних детей, материальную помощь нетрудоспособным родителям и права супругов на получение содержания. Особое внимание в статье уделено судебному порядку взыскания алиментов, установленным долям от дохода и законодательно закрепленным минимальным суммам выплат.

Ключевые слова: *алименты, несовершеннолетние, нетрудоспособность, судебный порядок, размер алиментов, дополнительные расходы, семейное законодательство.*

TYPES OF ALIMONY, PAYMENT PROCEDURES, AND AMOUNTS

Abstract

This article examines the legal substance of the term "alimony," the types of maintenance obligations, and the procedures for their payment. The author outlines the financial responsibilities toward minor children, disabled parents, and spouses or former spouses in need of support. Furthermore, the article provides an analysis of income-based alimony quotas and the legally established minimum payment amounts.

Keywords: *alimony, child support, minors, disability, court proceedings, payment amount, additional expenses, family law.*

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, undagi moddiy va ma'naviy barqarorlik davlat tomonidan himoya qilinadi. Oila huquqidagi eng muhim institutlardan biri bu — **aliment majburiyatidir**. "Aliment" lotincha "alimentum" so'zidan olingan bo'lib, "oziq-ovqat", "ta'minot" ma'nosini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga ko'ra, aliment nafaqat voyaga yetmagan bolalarning huquqi, balki oilaning boshqa a'zolari (mehnatga layoqatsiz ota-onalar, yordamga muhtoj er yoki xotin) o'rtasidagi o'zaro moddiy yordam majburiyatidir. Mazkur maqolada alimentning turlari, uning miqdorini belgilash prinsiplari va undirishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi.

Aliment so'zining ma'nosi nafaqa, ta'minot, boqish uchun mablag' ma'nosini anglatadi. Ko'pchilik aliment deganda ota tomonidan farzandi uchun to'lanadigan mablag'ni tushunishadi,

aslida alimentning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bular ota-ona tomonidan bolalari 18 yoshga to'lgunga, ya'ni voyaga yetguniga qadar aliment, ota-ona tomonidan voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment, ota-ona tomonidan favqulodda holatlar, ya'ni bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar tufayli kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan o'z ota-onasiga beriladigan moddiy yordam hamda er-xotin yoki sobiq er-xotin tomonidan bir-biriga beriladigan moddiy yordamdan iborat.

Shuningdek, aliment majburiyati ixtiyoriy ravishda, o'zaro kelishuvga asosan bajariladi. Agar aliment majburiyati bo'yicha kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi. Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir. Voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rtidan bir qismi; ikki bola uchun — uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun — yarmi miqdorida undiriladi.

Farzandlar soni	Daromadning ulushi (kvota)	Foizda ifodalanganda
1 nafar bola uchun	\$1/4\$ qismi	25%
2 nafar bola uchun	\$1/3\$ qismi	33.3%
3 va undan ortiq bola uchun	\$1/2\$ qismi	50%

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan, ya'ni bugungi kunda 336.815 so'mdan kam bo'lmasligi kerak. Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shart, bu holatda ham ta'minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi. Alimentning miqdori sud tomonidan aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning oilaviy va moddiy ahvoli hisobga olinib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Ota-ona favqulodda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart. Qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovtasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi. Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan e'tiboran uch yil davomida, o'rtadagi nogironligi bo'lgan bolani u o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I guruh nogironligi bo'lgan o'rtadagi

bolani parvarishlashni amalga oshirgan, yordamga muhtoj bo'lgan er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotindan (erdan) sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.

Xulosa qilib aytganda, aliment — bu shunchaki pul to'lash emas, balki qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan ma'naviy va huquqiy mas'uliyatdir. **Birinchidan**, aliment majburiyatlari doirasi keng bo'lib, u faqat voyaga yetmaganlarni emas, balki oilaning barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj a'zolarini qamrab oladi. **Ikkinchidan**, aliment miqdori daromadga mutanosib ravishda belgilanishi bilan birga, bolaning eng kam ehtiyojlarini qondirish uchun minimal chegara (26,5%) bilan kafolatlangan. **Uchinchidan**, nizolarni sud tartibida hal qilishda nafaqat qonun harfi, balki taraflarning real moddiy va oilaviy ahvoli (boshqa farzandlarning borligi va h.k.) inobatga olinishi adolatli qaror chiqarishning garovidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (O'RQ, 1998-yil 30-aprel).
2. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 29-iyuldagi "Sudlar tomonidan aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori.
4. Oila huquqi (Darslik). Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, 2022-y.
5. Lex.uz — O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.